

JINOYAT KODEKSI MATNLARINI SHAKLLANTIRUVCHI LISONIY BIRLIKLAR

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi

Oriental Universiteti, “Tillar-2” kafedrası katta o‘qituvchisi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

raxmatovabahorai@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22006264>

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi lingvistik omillar huquqiy diskursning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Jinoyat kodeksi matnining mazmuni, shakli va kommunikativ vazifasini ta‘minlovchi informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalarining funksional xususiyatlari ochib beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda Serious Crime Act matnlaridan olingan misollar asosida ushbu kategoriyalarning leksik, grammatik va pragmatik ifodalanishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *Jinoyat kodeksi, huquqiy diskurs, yuridik matn, lingvistik omil, informativlik, vaqt kategoriyasi, modallik, shaxsiylik, normativlik.*

АННОТАЦИЯ. В статье исследуются лингвистические факторы, формирующие текст Уголовного кодекса. Анализируются категории информативности, темпоральности, модальности и персональности, обеспечивающие содержание, структуру и коммуникативную функцию юридического текста. На материале Уголовного кодекса Республики Узбекистан и Serious Crime Act рассматриваются лексические, грамматические и прагматические средства выражения указанных категорий.

Ключевые слова: *Уголовный кодекс, юридический дискурс, юридический текст, лингвистический фактор, информативность, темпоральность, модальность, персональность, нормативность.*

ABSTRACT. This article examines the linguistic factors shaping the text of a Criminal Code. It focuses on informativeness, temporality, modality and personality as text-forming categories that determine the content, structure and communicative function of legal texts. Examples from the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and the Serious Crime Act are analyzed to identify lexical, grammatical and pragmatic means of expressing these categories.

Keywords: *Criminal Code, legal discourse, legal text, linguistic factor, informativeness, temporality, modality, personality, normativity.*

Huquq ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib, o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy munosabatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida insonlar muloqoti sharoitida shakllanadi va amal qiladi. Huquqiy faoliyatning asosiy shakllari til orqali amalga oshirilgani sababli huquqni aloqa vositasi sifatida ham ko‘rish mumkin. Zamonaviy yuridik tilshunoslik huquqiy sohada tildan maxsus maqsadlarda foydalanish, huquqiy kommunikatsiya va yuridik matnlarning lisoniy tuzilishini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi vositalar deganda uning mazmuni, shakli va kommunikativ vazifasini ta‘minlovchi til hamda struktur birliklar tushuniladi. Bunday birliklar qatoriga informativlik, vaqt, makon, modallik va shaxsga daxldorlikni ifodalovchi vositalarni kiritish mumkin. Mazkur kategoriyalar Jinoyat kodeksi matnining amal qilish doirasini, vaqt chegarasini, adresatini va bildirilayotgan huquqiy talabning kuchini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolada asosiy e‘tibor informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalariga qaratiladi. Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keying o‘rinlarda O‘RJK deb ataladi) hamda qiyosiy material sifatida Serious Crime Act matnlaridan foydalanildi. Tahlilda tavsifiy, kontekstual, qiyosiy va funksional-semantik usullar qo‘llandi.

Informativlik matnning yetakchi kategoriyalaridan biri bo‘lib, I.R. Galperin uni matnning mazmuniy dominantini shakllantiruvchi xususiyat sifatida baholaydi [1. 1981:C.140]. T.V. Gubayeva informativlikni matnda mujassamlangan ma‘lumot miqdori bilan bog‘laydi [2. 1986:C.232]. D. Ashurova esa informativlik barcha matn turlari uchun majburiy bo‘lsa-da, uning namoyon bo‘lish shakli matn turiga bog‘liqligini ta‘kidlaydi [3. 2022:C.73–97]. Huquqiy matnda bu kategoriya ayniqsa muhim, chunki norma noaniq yoki yetarli darajada axborot bermaydigan shaklda ifodalansa, uning talqini turlicha bo‘lishi mumkin.

Galperin matndagi axborotni mazmunan-faktual, mazmunan-konseptual, mazmunan-podtekst va implitsit axborot turlariga ajratadi [4. 1981:C.140]. Jinoyat kodeksi matnida mazmunan-faktual axborot eng

faol ko‘rinishlardan biridir. U jinoyat tarkibi, shartlari va huquqiy oqibatlarini eksplisit tarzda ifodalaydi. Masalan: “A person who commits an offence under section 69 is liable—(a) on summary conviction, to imprisonment for a term not exceeding 12 months or to a fine not exceeding the statutory maximum or to both; (b) on conviction on indictment, to imprisonment for a term not exceeding two years or to a fine or to both” (Serious Crime Act, Part 3, Section 70(1)). Mazkur konstruksiyada qilmish va unga nisbatan qo‘llanadigan jazo aniq ko‘rsatilgan.

O‘RJKdagi “Bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilsa ... jazolanadi” (O‘RJK, 277-modda) normasi ham faktual axborotning aniq va shartlangan shaklda berilishiga misoldir. Demak, Jinoyat kodeksi matnidagi informativlik huquqiy fakt, shart va oqibatlarni maksimal darajada aniq yetkazish vazifasini bajaradi.

Huquqiy matnlarda ham implitsit axborot ham mavjud. Masalan, O‘RJKning 32-moddasidagi “Agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo‘lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi” normasi bevosita takroriylikning huquqiy shartini ifodalasa, uning mazmunida insonparvarlik prinsipiga oid kontekstual ma’no ham anglashiladi. D. Ashurova implitsit ma’lumotning lingvistik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv va sotsiokultural kontekst bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [5. 2016:P.21].

Retrospektiv axborot ham Jinoyat kodeksi matnining muhim vositasidir. Bunda avval bayon qilingan normaga havola orqali qo‘shimcha ma’lumot beriladi. Masalan, O‘RJKning 244-moddasida boshqa moddadagi jinoyat alomatlariga havola qilinishi huquqiy mazmunning oldingi normaga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Serious Crime Act matnida ham “section 4(5), 49(6) or 63(4)” kabi havolalar normativ axborotni boshqa qoidalarga bog‘laydi. Shunday qilib, asosiy va retrospektiv axborot o‘zaro bog‘lanib, kodeksning yaxlitligini ta’minlaydi.

Vaqt kategoriyasi Jinoyat kodeksi matnining muhim semantik va normativ belgilaridan biridir. A.V. Bondarko vaqtni til birliklari orqali ifodalanuvchi semantik kategoriya sifatida tavsiflaydi [8. 2001:C.66]. O.I. Moskalskaya vaqtni predikativlik bilan bog‘liq majburiy belgilar qatorida ko‘radi [9. 1981:C.98]. Huquqiy matnda esa vaqt oddiy grammatik zamon ma’nosidan kengroq bo‘lib, huquqiy harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugashi, takrorlanishi va ketma-ketligini belgilaydi.

O‘RJKda “Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga ... qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish ... nazarda tutilgan jinoyatlar ... kiradi” (O‘RJK, 15-modda) kabi norma jazo muddatini jinoyatning huquqiy tasnifi bilan bog‘laydi. Serious Crime Act matnida esa “imprisonment for a term not exceeding 12 months”, “not exceeding five years” kabi birliklar jazoning vaqt chegarasini belgilaydi.

Huquqiy vaqtning davomiylilik xususiyati O‘RJKning “Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi” (O‘RJK, 72-modda) normasida yaqqol ko‘rinadi. Serious Crime Actda ham “any period of 40 days” kabi birliklar muayyan huquqiy muddatni chegaralaydi. G.I. Petrov yuridik matnlarda sanalar, huquqiy harakatlarning davomiyligi, takroriyliigi va voqealar izchilligini vaqtning muhim ko‘rinishlari sifatida ko‘rsatadi [10. 1982:C.46–52]. P.M. Rabinovich esa vaqtning huquqiy tartibga solishdagi funksiyasini, xususan, muddatlarni belgilash va vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash bilan bog‘laydi [11. 1990:C.19–27].

Shuningdek, Jinoyat kodeksi matnida retrospektiv va prospektiv vaqt munosabatlari ham uchraydi. “Besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish ... retsidiv jinoyat deb topiladi” (O‘RJK, 34-modda) normasida yangi jinoyatning oldingi huquqiy holat bilan ketma-ket munosabati vaqt orqali belgilanadi. Demak, vaqt kategoriyasi jinoyatning kvalifikatsiyasi va huquqiy oqibatlarini aniqlashda muhim mezondir.

Jinoyat kodeksi rasmiy-normativ matn bo‘lganligi sababli unda subyektiv baholash cheklangan, obyektiv va deontik modallik esa ustun hisoblanadi. Bunda modal ma’no normaning majburiyligi, zaruriyligi, taqiq yoki ruxsatini belgilaydi. O‘zbek tilida “shart”, “lozim”, “zarur”, “majbur” kabi vositalar hamda fe’l mayllari modal mazmunni yuzaga chiqaradi. Ingliz qonunchiligida esa “must” kabi modal birliklar majburiyatni bevosita ifodalaydi. Masalan: “In its application for an order under this section, the enforcement authority must nominate a suitably qualified person for appointment as a receiver” (Serious Crime Act, s.83(4)).

Shaxsiylik kategoriyasi matnda harakat subyekti va nutq ishtirokchilarining ifodalanishi bilan bog‘liq. Yuridik matnda ushbu kategoriya badiiy matndan farqli ravishda obyektivlik va betaraflik

talablariga bo'ysunadi. Shaxs kategoriyasining grammatik ifodasi shaxs-son shakllari, olmoshlar va kesim vositasida yuzaga keladi

Jinoyat kodeksi matnlarida uchinchi shaxs shaklining ustunligi kuzatiladi. Buning sababi qonun muayyan bir shaxsning individual fikrini emas, balki noma'lum doiradagi adresatlar uchun umumiy huquqiy qoidani belgilashidir. Masalan, O'RJKning 89-moddasidagi *“O'n sakkiz yoshga to'lmadan sodir etgan jinoyati uchun ... hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo'llanilishi mumkin”* normasi umumlashtirilgan subyektni ifodalaydi. Serious Crime Actdagi *“A person subject to service law commits an offence if he encourages or assists the commission of a service offence”* konstruksiyasi ham muayyan shaxsni emas, huquqiy jihatdan aniqlangan shaxslar guruhini nazarda tutadi.

Birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlarining deyarli ishlatilmasligi qonun matnining rasmiy va obyektiv tabiatini kuchaytiradi. “Men”, “sen”, “biz”, “siz” kabi birliklar o'rniga “shaxs”, “fuqaro”, “sud”, “organ”, “mansabdor shaxs” singari huquqiy jihatdan umumlashtirilgan nominativ birliklar qo'llanadi. Bundan tashqari, majhul nisbatli “ko'rib chiqiladi”, “bajariladi”, “jazo tayinlanadi” kabi konstruksiyalar harakat bajaruvchisini ikkinchi planga surib, huquqiy harakatning o'zini markazga chiqaradi. Shu jihatdan uchinchi shaxs va majhul qurilmalar Jinoyat kodeksi matnining neytralligi, rasmiyligi va normativligini ta'minlovchi vositalardir.

Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalari alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida faoliyat yuritadi. Informativlik norma mazmunini yetkazadi; vaqt huquqiy harakatning chegarasini belgilaydi; modallik normaning majburiylik yoki ruxsat kuchini ifodalaydi; shaxsiylik esa huquqiy munosabat subyektlarini obyektiv tarzda nominatsiya qiladi. Mazkur kategoriyalar birlashib, Jinoyat kodeksi matnining kommunikativ-pragmatik modelini yuzaga keltiradi.

O'RJK va Serious Crime Act misollarining qiyosi mazkur kategoriyalarning funksional maqsadi umumiy ekanini, biroq ularning lisoniy ifodasi tilning grammatik tizimi va huquqiy an'alariga bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sababli Jinoyat kodeksi matnini lingvistik jihatdan o'rganishda faqat alohida so'z yoki gaplarni emas, balki ularning matnning normativ va pragmatik vazifasini shakllantirishdagi o'zaro aloqasini hisobga olish zarur.

XULOSA. Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi lingvistik omillarni tahlil qilish natijasida informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalari uning asosiy matn shakllantiruvchi vositalari ekanligi aniqlandi. Informativlik huquqiy fakt, shart va oqibatlarini aniq yetkazishni; vaqt kategoriyasi huquqiy harakatlarning boshlanishi, davomiyligi, tugashi va ketma-ketligini belgilashni; modallik normativ kuch, majburiyat, taqiq va ruxsatni ifodalashni; shaxsiylik esa huquqiy subyektlarni umumlashtirilgan va betaraf shaklda ifodalashni ta'minlaydi.

Demak, Jinoyat kodeksi matnining lingvistik tuzilishi uning huquqiy tabiatidan kelib chiqadi. Mazkur kategoriyalarni kompleks o'rganish o'zbek va ingliz tillaridagi jinoyat qonunchiligi matnlarining kommunikativ, pragmatik va struktur xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 140 с.
2. Губаева Т. В. Практический курс русского языка для юристов. – Казань: Университет, 1986. – 232 с.
3. Ашурова Д. У. Категория информативности английского художественного текста // Иностранные языки в Узбекистане. – 2022. – № 2 (43). – С. 73–97.
4. Дмитриевская И. В. Текст как система: понимание, сложность, информативность: учебное пособие. – 1985. – 84 с.
5. Ашурова Д. У. Text Linguistics. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2016. – 21 p.
6. Рыбакова Л. В. Категория информативности в прагматическом аспекте (на материале англоязычных информационно-рекламных текстов): дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1998. – 192 с.
7. Бондарко А. В. Основы функциональной грамматики: Языковая интерпретация. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2001. – 66 с.
8. Москальская О. И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – 98 с.
9. Петров Г. И. Фактор времени в советском праве // Правоведение. – 1982. – № 6. – С. 46–52.

10. Рабинович П. М. Время в правовом регулировании (философско-юридические аспекты) // Правоведение. – 1990. – № 3. – С. 19–27.
11. Виноградов В. В. Исследования по русской грамматике. – Москва: Наука, 1975. – 55 с.